

“Chang‘andan Vandugacha: O‘zbekiston-Xitoy qo‘shma ekspeditsiyasining qazishma ishlari natijalari” nomli ko‘rgazma

2019-yil 22-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida Xitoy Xalq Respublikasi Ijtimoiy fanlar akademiyasi bilan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi o‘rtasida 2018-yilda imzolangan Anglashuv memorandumiga asosan “Chang‘andan Vandugacha: O‘zbekiston-Xitoy qo‘shma ekspeditsiyasining qazishma ishlari natijalari” nomli ko‘rgazma ochildi.

Mazkur ko‘rgazmada Xitoy Xalq Respublikasi Ijtimoiy fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologik tadqiqotlar instituti xodimlari bilan hamkorlikda Andijon viloyatidagi Mingtepa yodgorligida olib borilgan qazishma ishlarining ilmiy natijalari o‘z aksini topgan.





Qazishma ishlari, Mingtepada o'tkazilgan arxeologik qazishmalar Andijonning Davan podsholigi davridagi tarixi va madaniyatini o'rganishda yangi ma'lumotlar berdi. Shahar to'g'riburchak rejali burjlar bilan ta'minlangan ikki qator kuchli devorlar himoyasida bo'lgan. Arkda 5 metrli tagkursi qurilgan va uning ustida mahobatli bino qurilgan bo'lishi kerak. Bu ma'lumotlar juda muhim ahamiyatga ega, chunki ko'p tadqiqotchilar Mingtepani qadimgi Andijon davlatining poytaxti deb hisoblaydilar.

Shu munosabat bilan mazkur ko'rgazma barcha yurtdoshlarimizni, maktab o'quvchilari, talabalar, magistrlar ayniqsa muzeyshunoslik, tarix, arxeologiya, etnografiya va san'atshunoslik kabi turli yo'nalishlarda izlanishlar olib borayotgan yosh olimlar, ilmiy xodimlar, mutaxassislarning faol ishtirok etishini nazarda tutadi.